

N.U. AMONOVA

**INVESTITSIYA FAOLIYATINI
MOLIYALASHTIRISHNING
BOZOR MEXANIZMLARINI
TAKOMILLASHTIRISH**


336
A58

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

N.U. AMONOVA

**INVESTITSIYA FAOLIYATINI
MOLIYALASHTIRISHNING
BOZOR MEXANIZMLARINI
TAKOMILLASHTIRISH**

(Monografiya)



TOSHKENT – 2023

UO'K: 338.486.6+330.322

KBK 65.291

A 58

N.U.Amonova. Investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning bozor mexanizmlarini takomillashtirish. (Monografiya). – T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2023, 160 b.

ISBN 978-9910-01-007-1

Mazkur monografiya uchta qismdan tashkil topib, uning birinchi qismida investitsiya faoliyatini moliyalashtirishda bozor mexanizmlarining zarurligi, funksional elementlarining nazariy asoslari, investitsiyalarni moliyalashtirishning manbalari va usullarini shakllantirish asoslari hamda investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning bozor mexanizmlarining huquqiy asoslariga daxldor natija va xulosalar shakllantirilgan.

Monografiyaning amaliy tahlillarga bag'ishlangan ikkinchi qismida esa O'zbekistonda investitsiya faoliyatini moliyalashtirishda bozor mexanizmlarining bugungi kundagi holati tahlillari va investitsiyalarni moliyalashtirishning ilg'or xorij tajribalari o'rganilib hamda investitsiyalarni moliyalashtirishning mamlakat iqtisodiyoti rivojiga ta'sirining ekonometrik tahlilarasi asosida ularni O'zbekiston amaliyotida qo'llash imkoniyatlari keltirib o'tilgan.

Olib borilgan tadqiqotlarimiz ko'rsatdiki, O'zbekiston iqtisodiyotida investitsiya faoliyatini yanada takomillashtirishda davlatning bevosita investor sifatidagi roli va hissasi kamayib, xususiy investorlarning o'mni tobora taraqqiy etayotganini kuzatishimiz mumkin. Bu esa, o'z navbatida, yangi moliyalashtirish manbalari, qulay investitsiya muhiti, investitsiya infratuzilma subyektlari, ya'ni tijorat banklari, yangi moliya-kredit investitsiya institutlari kabilarning shakllanishi bilan ifodalanadi. Va nihoyat, monografiyaning so'nggi qismida milliy iqtisodiyotimizda investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning bozor mexanizmlarini joriy etishdagi muammolar aniqlanib, ushbu muammolarning yechimi va ularni takomillashtirish yo'llari tadqiq etilib, ushbu bobning yakunida ilmiy xulosa va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Monografiya bank mutaxassislari, oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilar, ilmiy izlanuvchilar va talabalarga tavsiya etiladi.

UO'K: 338.486.6+330.322

KBK 65.291

Taqrizchilar:

J.Ya.Isakov – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Bank ishi va investitsiyalar” kafedrasi professori, iqtisodiyot fanlari doktori;

T.E. Madaliyev – “Orient Finans” XATB Boshqarma boshlig'i, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Mazkur monografiya Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy Kengashining 2023-yil 4-iyuldagagi 11-sonli qaroriga asosan chop etildi.

ISBN 978-9910-01-007-1

© «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2023.

KIRISH

Rivojlangan davlatlar tajribasiga ko'ra, bugungi kunda iqtisodiy rivojlanish uchun faqat jamg'arma va investitsiyalar faoliyatining yuqori sur'atlarigina yetarli emas. Bozor iqtisodiyotiga o'tish bosqichida investitsiya faoliyatini moliyalashtirish ozligi, umumiy investitsiyalarda aholining pul mablag'lari ulushining kamligi tufayli investitsiyalarni moliyalashtirishning tashqi manbalarini jalb etish va ularni bozor mexanizmlari orqali takomillashtirish obyektiv zaruratga aylanadi. Pandemiya sharoitida yirik iqtisodiyotga ega mamlakatlarda ishlab chiqarish va iste'mol hajmlarining keskin qisqarishi, global ishlab chiqarish zanjirlari va savdo aloqalarining izdan chiqishi, dunyo moliya bozorlarida xomashyo tovarlari narxi pasayishi evaziga iqtisodiyotni qayta tiklash uchun yirik hajmdagi moliyaviy mablag'lar sarflanishi mamlakatda inflyatsiya sur'atining keskin o'sishi va ishsizlik darajasini oshishiga olib kelmoqda. Bu holat mamlakat YalMga o'z ta'sirini ko'rsatib, «...har oy dunyo mamlakatlari YalMning 2 foizgacha pasayishiga olib kelishi mumkin»¹. Koronavirus pandemiyasi va dunyodagi iqtisodiy inqirozlar sababli dunyoning yetakchi davlatlarida inqirozga qarshi kurashish investitsiya dasturlarini ishlab chiqib, mazkur dasturlarda ko'zda tutilgan chora-tadbirlarni moliyalashtirish mexanizmlari shaklantirildi.

Hozirda jahoning rivojlanayotgan mamlakatlarida investitsiya faoliyatini moliyalashtirish amaliyotini bozor mexanizmlari orqali takomillashtirish, xususan, ularning yangi moliyalashtirish manbalaridan foydalanish darajasini oshirish, kompaniyalar

¹ Chakraborty I., Maity P. COVID-19 outbreak: Migration, effects on society, global environment and prevention. International Journal Science of the Total Environment 728 (2020) 138882.

investitsion faoliyatini moliyalashtirish amaliyotiga innovatsion usullarni joriy etishga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, mazkur mamlakatlar amaliyotida inflayatsiya darajasi yuqoriligi hamda investitsion muhit jozibadorligi nisbatan pastligi, moliyalashtirish manbalarining barqaror emasligi natijasida korxona va tashkilotlarning investitsion faoliyatini moliyalashtirish amaliyotiga ta’sir etayotgan salbiy jihatlarni bartaraf etish ilmiy tadqiqotning muhim yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan keng islohotlar natijasida, O‘zbekiston xalqaro reytinglar tizimida munosib o‘rinlarni egallab bormoqda, xususan, «...mamlakatimiz xorijiy investitsiyalar oqimi reytengida 201 mamlakatlar orasida 103 o‘rinni egallagan»². Bundan tashqari, dunyo mamlakatlarining investitsiya faoliyati muhitini ifodalaydigan ko‘pgina asosiy indekslarida mamlakatimiz hamon o‘z o‘rnini topmagan. Shu sababli O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-iyundagi «O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o‘mini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy qilish to‘g‘risida»gi Farmoni va Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan yangilash, ishlab chiqarish, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma loyihibalarini amalga oshirishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini olib borish, iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgartishlarni amalga oshirish ustuvor vazifalar sifatida belgilab berildi. Mazkur vazifalar ijrosini ta’minlash investitsiyalarni moliyalashtirishni ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirishni taqozo etadi.

² <http://Worldbank.org> sayti ma’lumotlari

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022–2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-60-son farmoni, 2018-yil 1-avgustdagи PF-5495-son «O‘zbekiston Respublikasi investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2019-yil 14-maydagi PF-5717-son «O‘zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturini shakllantirish va amalga oshirishning sifat jihatidan yangi tizimiga o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2019-yil 23-oktyabrdagi PF-5853-son «O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi, 2019-yil 28-yanvardagi PF-5643-son «Investitsiya va tashqi savdo sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi va 2020-yil 2-iyundagi PF-6003-son «O‘zbekiston Respublikasi ning xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishslashning yangi mexanizmini joriy qilish to‘g‘risida»gi Farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-yanvardagi PQ-4135-son «O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida»gi, 2018-yil 31-maydagi PQ-3756-son «Imtiyozlar va preferensiyalar berish tartibini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorlarida belgilangan vazifalarni hal etishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Alovida ta’kidlash joizki, hozirgi sharoitda mamlakatda olib borilayotgan faol investitsiya siyosatining istiqboldagi ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi ko‘p jihatdan uni moliyalashtirishni xorijiy ilg‘or tajribalarga asoslangan holda, bozor mexanizmlari asosida yanada takomillashtirish bo‘yicha tizimli qarorlar qabul qilishga bog‘liqdir.

Ammo, iqtisodiy globallashuv jarayonlarida mamlakatning iqtisodiy o'sishi va barqarorligini ta'minlashning asosiy omili hisoblangan bozor mexanizmlari asosida investitsiya faoliyatiga moliyaviy mablag'larni yo'naltirishni talab etadi. Har bir investitsiya loyihasini amalga oshirish uni moliyaviy ta'minlashga bog'liq hisoblanadi. Biroq investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalarini shakllantirish bozor mexanizmlari orqali takomillashtirish tarmoqlar kesimida rivojlantirish, mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni yanada keng jalb qilish va rag'batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish, hududlar investitsiya salohiyatini baholash, investitsiyalarni moliyalashtirish manbalarini kengaytirish zaruratini yuzaga keltirdi.

I BOB. MILLIY IQTISODIYOTIMIZDA INVESTISIYA FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHDA BOZOR MEXANIZMLARINING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI

1.1. Investitsiya faoliyatini moliyalashtirishda bozor mexanizmlarining zarurligi va funksional elementlarining nazariy asoslari

Iqtisodiy o'sishning yangi modelini izlash, mamlakat rivojlanishining innovatsion modeliga o'tishning zamonaviy sharoitida uning investitsiya faoliyatini rivojlantirish muammolari yetakchi yo'naliishlardan birini egallaydi, chunki ular raqobatbardosh milliy iqtisodiyotni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Bunday sharoitda investitsiyalarning maqsadi va ustuvor yo'naliishlarini aniq belgilash, investitsiya faoliyatini oqilona tartibga solish, investitsiya muhitini shakllantirish asosida mahalliy va xorijiy investitsiyalarni jalb etish hamda moliyalashtirish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratishni taqozo etmoqda.

Hozirgi kunda, inson manfaatlari ustuvorligini hisobga olgan holda milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash bo'yicha amalgamshirilayotgan islohotlar doirasida investitsiyalarni yana-da kengroq jalb qilish hamda moliyalashtirishning samarali innovation usullarini o'rganish, uning muqobil usullarini to'g'ri tanlash, takomillashgan zamonaviy mexanizmlari hamda an'anaviy va noananaviy vositalarini chuqurroq o'rganish, xususan, investitsiyalarni moliyalashtirishni keng joriy etish kelgusidagi asosiy vazifalarni hal qilishda muhim omil bo'lib qolmoqda.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlab o'tgancharidek: "Qulay investitsiya muhitini yaratish bo'yicha amalgamshirigan islohotlarimiz natijasida so'nggi 5 yilda iqtisodiyotimizga

kirib kelgan xorijiy investitsiyalar hajmi 10 baravar oshib, qariyb 40 milliard dollarni tashkil etdi. Biz 10 yil ichida yalpi ichki mahsulot hajmini hoziridan ikki barobarga oshirishni maqsad qilganmiz. Bunga erishish uchun bizda xohish-iroda ham, imkoniyat ham yetarli. O‘z oldimizga qo‘ygan bunday yuksak marralar uchun sarmoyalar hajmini kelgusi 5 yilda 120 milliard dollarga yetkazish, jumladan, kamida 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalar jalb qilishni hisob-kitob qilganmiz. Ushbu investitsiyalarni, eng avvalo, sanoat sohalarini modernizatsiya va transformatsiya qilish, ishlab chiqarish, communal va transport infratuzilmasini jadal rivojlantirishga yo‘naltirish uchun aniq loyihalar va dasturlarimiz bor. Shuningdek, ta’lim va sog‘liqni saqlash kabi davlat qaramog‘idagi an’anaviy sohalarga ham xususiy investitsiyalar jalb qilish kun tartibimizda turadi³”.

Shunga ko‘ra, mamlakatimizda investitsiyalarning salohiyati va iqtisodiyotni rivojlantirishdagi beqiyos o‘rnini o‘rganishga bo‘lgan munosabat kundan kunga jiddiy tus olmoqda. Iqtisodiyotga investitsiyalarni keng jalb etish, xususan, ularni moliyalashtirish bilan bevosita bog‘liqdir.

Umuman olganda, investitsiyalarni amalga oshirish investitsiya jarayonining tarkibiy qismi hisoblanadi, hamda investitsiya resurslari hosil qilinishi natijasiga tayanadi. Investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning bozor mexanizmlarini takomillashtirish bugungi kunda eng muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqotimizda ko‘rib chiqiladigan “investitsiya faoliyati”, “investitsiya faoliyatini moliyalashtirish” tushunchalarini ilmiynazariy asoslash uchun chet el va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan ko‘plab ilmiy ishlar qilingan, kitoblar yozilgan va

³ https://aza.uz/uz/posts/prezident-shavkat-mirzivoevning-ozbekiston-respublikasi-prezidenti-huzuridagi-horizhiy-investorlar-kengashining-birinchi-valpi-mazhlisidaqil-nutqi_426372

ta’riflar berilgan. Shuningdek, iqtisodiy adabiyotlar va ilmiy tadqiqotlarda “investitsiya”, “investitsiya faoliyati” va “investitsiya faoliyatini moliyalashtirish” mazmun-mohiyatinining turlicha talqinlari uchraydi. Ularni chuqur va keng tadqiq etib o’tgan holda, investitsiya faoliyati mazmuniga berilgan quyidagi ta’riflarga alohida to’xtalib o’tishni lozim deb hisobladik.

Xorijlik iqtisodchi olim A.V.Pikulkinaning fikricha, “investitsiyalar mintaqasi potentsialining iqtisodiy rivojlanishida va uning iqtisodiyotining dinamik faoliyatida muhim rol o’ynaydi. Investitsiya oqimlarining ortib borayotgan hozirgi tendensiyasi sharoitida moliyaviy resurslardan samarali foydalanish yanada muhimroq bo’ladi”⁴.

Bizning fikrimizcha, muallif tomonidan investitsiya tushunchasiga keng ta’rif berilgan bo’lib, unda moliyaviy resurslardan samarali foydalanishga e’tibor qaratilgan bo’lib, investitsiya resurslarini moliyalashtirish jihatlariga e’tibor qaratilmagan.

Investitsiya faoliyati tushunchasiga ko’plab rus va boshqa olimlar ham o’z tadqiqotlarida to’xtalib o’tgan. Jumladan, L.I. Yuzovovich fikriga ko’ra, investitsiya faoliyati bu investitsiyalarni kiritish va ularni amalga oshirish bo’yicha amaliy harakatlari majmuidir⁵.

Yu.V.Rojkov, Ye.P.Sarvarova va V.S. Stepanova xulosalariga ko’ra, “investitsiya faoliyati bu investitsiyalarni jalb qilish, kiritish va ulardan foydalanish bo’yicha maqsadli harakatlardir”, ya’ni bizning fikrimizcha, mualliflar investitsiyalarni jalb qilinishiga alohida e’tibor qaratgan.

Shu bilan birga, tadqiqotimizda bir qator iqtisodchi olimlarining qarashlarini tahlil qilganimizda, ularning tadqiqotlarida

⁴ Пикулкина А.В. Экономика муниципального сектора / под ред. М., 2017. С. 15.

⁵ Л.И. Юзовович. Инвестиции: учебник, 2-е изд., – Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та, 2018. – С. 52.

investitsiya faoliyatining maqsadi, ya’ni daromad yoki boshqa natijaga erishish zarurligi ko’rsatib o’tilgani e’tiborni tortdi.

Xususan, iqtisodchi olim V.V.Bocharov “investitsiya faoliyati tushunchasiga foyda olish yoki boshqa samara olish uchun investitsiyalarni biznesga kiritish va amaliy harakatlarni amalga oshirish” deb ta’rif berib, u mazkur faoliyatni korxonalarini ichki va tashqi rivojlantirishga yo‘naltirilishiga e’tibor qaratgan⁶.

Yuqoridagi iqtisodchi olimlarning fikrlarini inobatga olgan holda, biz olib borgan tadqiqotlarimiz natijasida “investitsiya faoliyati” tushunchasiga quyidagi mazmunda ta’rif berishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz: “Investitsiya faoliyati – bu kelgusidagi maqsadlarga erishish uchun mavjud resurslardan ongli ravishda, vaqtincha foydalanishdan voz kechish va tavakkal qilish jarayonidir”.

1.1-jadval

Iqtisodchi olimlar tomonidan investitsiya faoliyati tushunchasiga berilgan ta’riflar⁷

Mualliflar	Investitsiya tushunchasiga berilgan ta’riflar
G.P.Podshivalenko N.V.Kiseleva	Investitsiya faoliyati tushunchasini keng va tor ma’noda ko’rib chiqib, uni “keng ma’noda – daromad (samara) olish maqsadida investitsiya obyektlariga investitsiya kiritish bilan bog’liq faoliyat”, deb ta’riflagan bo’lsa, “tor ma’noda – investitsiya resurslarini investitsiyaga aylantirish jarayoni”
T.K.Rutkauskas	Investitsiya faoliyati – daromad (samara) olish maqsadida investitsiya obyektlariga

⁶ В.В.Бочаров, Инвестиции: Учебник для вузов, 2-е изд. – СПб.: Питер, 2008. С. – 20.

⁷ Iqtisodiy adabiyotlarni o’rganish natijasida muallif tomonidan mustaqil tuzildi.

	investitsiya kiritish bilan bog‘liq faoliyat, ya’ni resurslarni kiritish va kelajakda daromad olish jarayonlarining birligi
M.A. Nikolaev	Investitsiya faoliyati – bu daromad olish va (yoki) boshqa foydali samaraga erishish uchun investitsiya resurslari orqali amaliy harakatlarni amalga oshirishdir
B.S.Mamatov, D.Yu.Xo‘jamqulov, O.Sh.Nurbekov	investitsiya faoliyati keng ma’noda – bu g‘oyalarni ishlab chiqish va investitsiya loyihibalarini asoslash, ularni moddiy-texnik va moliyaviy ta’minlash, buning natijasida, barpo etilayotgan obyekt faoliyatini boshqarish va investorlarning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishish imkoniyatlarini ham aks ettirishidir
T.V.Denisova, I.G.Nuretdinov Yu.V.Nuretdinova	Deyarli har qanday investitsiya faoliyati kelajakda ijobiy natijalarga erishish uchun kapitalni hozirgi kunga investitsiya qilishni o‘z ichiga oladi
Muallif ta’rifi	Investitsiya faoliyati bu – bozor munosabatlari shakllangan sharoitda foyda yoki boshqa samara olish maqsadida investitsiya faoliyatini amalga oshirayotgan ikki tomon (investitsiya obyekti va investitsiya subyekti) tarafidan, qonun hujjatlarida va davlat tomonidan ta’qilqanmagan faoliyat turlariga ishochli moliyalashtirish manbalari hisobidan, tavakkalchilik asosida olib boriladigan harakatlar majmuasidir.

Yuqoridagi fikrlardan anglashiladiki, daromadlar va ularning miqdori investoring har qanday taxminlariga asoslangan, kutilgan qiymatdir. Ushbu daromadlardan qanchalik uzoq bo‘lsa, kutilgan va haqiqiy olingan daromad o‘rtasidagi farq katta bo‘lishi ehtimoli ko‘proq. Bu investitsiyalarning ma’lum bir riskni o‘z ichiga olishining sabablaridan biridir.

Bizning fikrimizcha, investitsiya tushunchasiga G.P.Podshivalenko va N.V.Kiseleva tomonidan berilgan ta’rifning e’tiborli jihat shundaki, investitsiya resurslarini investitsiyaga aylantirish hisoblanadi, ya’ni foydalanilmasdan bo‘sh turgan investitsiya resursi investitsiya hisoblanmaydi⁸.

Iqtisodchi olim professor D.G‘.G‘ozibekov investitsiyaga moliyaviy kategoriya sifatida quyidagicha ta’rif bergan: “Investitsiyalarning mazmuni aniq va ishonchli manbalardan mablag‘lar olish, ularni asosli holda safarbar etish, risklar darajasini hisobga olgan holda kapital qiymatini saqlash va ko‘zlangan samarani olishdan iborat bo‘ladi”⁹.

Bizning fikrimizcha, muallif tomonidan investitsiya tushunchasi batafsil yoritilgan bo‘lib, unda manba, mablag‘larning maqsadli ishlatilishi, risk va samaraga alohida e’tibor qaratilib, investitsiyalar moddiy va nomoddiy aktivlar sifatida alohida ko‘rib chiqilmagan.

“Investitsiya faoliyati” tushunchasiga ta’riflarni quyidagilarda ko‘rish mumkin. Jumladan, N.G‘.Karimov, R.X.Xojimatov, J.X.Razzokov xulosalariga ko‘ra, “investitsiya faoliyati bu – investitsiya faoliyati subyektlarining investitsiyalarni amalga

⁸ Н.В.Киселева, Т.В.Боровикова, Г.В.Захарова, и др., под ред. Г.П.Подшиваленко и Н.В.Киселевой. Инвестиционная деятельность – 2-е издание, стер. – М. КНОРУС, 2006. С. – 13

⁹ G‘ozibekov D.G‘. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. G‘ T.: “Moliya” nashriyoti, 2003. 26-bet

oshirish bilan bog‘liq harakatlarini o‘z ichiga oluvchi iqtisodiy va huquqiy munosabatlar majmuasidir”¹⁰.

T.K.Rutkauskas o‘z tadqiqotlarida investitsiya faoliyatida investorning ishtirokini alohida ko‘rsatib, unga ko‘ra: “investitsiyalarni amalga oshirish bo‘yicha amaliy harakatlar majmui – investitsiya faoliyati, investitsiyalarni amalga oshiruvchi shaxslar esa, investorlar yoki boshqacha qilib aytganda, investitsiya faoliyati – daromad (samara) olish maqsadida investitsiya obyektlariga investitsiya kiritish bilan bog‘liq faoliyat, ya’ni resurslarni kiritish va kelajakda daromad olish jarayonlarining birligi”,¹¹ deb ta’rif bergen.

M.A. Nikolaev: “investitsiya faoliyati bu daromad olish va (yoki) boshqa foydali samaraga erishish uchun investitsiyalar va amaliy harakatlarni amalga oshirishdir. Bunda investitsiya faoliyati ko‘p jihatdan normativ-huquqiy bazaning to‘liqligi va mukammaligi darajasiga bog‘liq”,¹² deb ta’kidlagan. Fikrimizcha, investitsiya faoliyatini huquqiy jihatdan ta’minalash haqiqatan ham dolzarb masala hisoblanadi. Bu boradagi fikrlarimizni ushbu bobning uchinchi paragrafida keltirib o’tamiz.

Bundan tashqari, K.R. Makkonnell, S.L. Bryu tadqiqotlariga ko‘ra, “iqtisodchi uchun investitsiyalash deganda naqd pul yoki bank hisobining bir qismini nafis dizayndagi buyumga ayirboshlash bo‘yicha sof moliyaviy operatsiya emas, balki mashina va asbob-uskunalarni yoki yangi zavod binosi qurilishi kabi real aktivlarni sotib olish tushuniladi”¹³.

¹⁰ Karimov N.G., Xojimatov R.X., Investitsiya. O‘quv qo‘llanma. – T.: TDIU, 2019. – 46 bet

¹¹ Инвестиции и инвестиционная деятельность организаций : учебное пособие / Т.К. Руткаускас [и др.]; под общ. ред. д-ра экон. наук, проф. Т.К. Руткаускас.–Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та, 2019. С. – 17.

¹² Николаев М.А. Инвестиционная деятельность: Учебное пособие. – Псков: Изд-во ППИ, 2007. С. – 42..

¹³ Макконнелл К.Р., Брю С.Л. Економикс: принципы, проблемы и политика: Пер. с 13-го англ. изд. — М.: ИНФРА-М, 1999. XXXIV, С. – 11

Bizning fikrimizcha, yuqoridagi iqtisodchi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan ta’riflarda, investitsiya obyekti sifatida faqat kapital investitsiyalar nazarda tutilib, moliyaviy va ijtimoiy investitsiyalar inobatga olinmagan.

Bilamizki, O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq, “investitsiya faoliyati – bu investitsiya faoliyati subyektlarining investitsiyalarni amalga oshirish bilan bog‘liq harakatlari majmui”¹⁴ hisoblanadi.

Qonunga muvofiq, investitsiyalar mo‘ljallangan obyektiga ko‘ra, kapital, moliyaviy va ijtimoiy turlarga bo‘linadi¹⁵.

Qonunga ko‘ra:

- asosiy fondlarni yaratish va takror ko‘paytirishga, shu jumladan, yangi qurilishga, modernizatsiya qilishga, rekonstruksiya qilishga, texnik jihatdan qayta jihozlashga, shuningdek, moddiy ishlab chiqarishning boshqa shakllarini rivojlantirishga kiritiladigan investitsiyalar kapital investitsiyalar jumlasiga kiradi;
- aksiyalar, korporativ, infratuzilmaviy va davlat obligatsiyalariga, shuningdek, qimmatli qog‘ozlarning boshqa turlariga kiritiladigan investitsiyalar moliyaviy investitsiyalar jumlasiga kiradi;
- inson salohiyatini, ko‘nikmalarini va ishlab chiqarish tajribasini rivojlantirishga, shuningdek, nomoddiy boyliklarning boshqa shakllarini rivojlantirishga kiritiladigan investitsiyalar ijtimoiy investitsiyalar jumlasiga kiradi.

O‘zbekistonlik tadqiqotchilardan B.S.Mamatov, D.Yu.Xo‘jamqulov, O.Sh.Nurbekovlar investitsiya faoliyati mazmunini batafsilroq ifoda etishga muvaffaq bo‘lgan. Ularning

¹⁴ O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunining 3-moddasi

¹⁵ O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunining 5-moddasi

xulosasiga ko'ra, "investitsiya faoliyati keng ma'noda — bu g'oyalarni ishlab chiqish va investitsiya loyihalarini asoslash, ularni moddiy-texnik va moliyaviy ta'minlash, buning natijasida, barpo etilayotgan obyekt faoliyatini boshqarish va investorlarning o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish imkoniyatlarini ham aks ettiradi"¹⁶.

Demak, investitsiya faoliyati shunday faoliyat ekan, bu faoliyat mablag' bilan ta'minlanishi kerak, shuning uchun biz bu jarayonni investitsiya faoliyatini moliyalashtirish deb hisoblaymiz.

Investitsiya faoliyatini moliyalashtirish tushunchasini ham ko'plab mahalliy va xorijiy olimlarning tadqiqotlarida kuzatish mumkin.

Klassik olimlardan, atoqli ingliz iqtisodchisi David Rikardo o'zining "Siyosiy iqtisod va soliqqa tortish tamoyillari" asarida "investitsiya faoliyati tushunchasidan foydalanmagan bo'lsa-da, ishlab chiqarishda kapitaldan foydalanishga e'tibor qaratgan. D.Rikardo kapitalni asosiy va aylanma kapitalga bo'lib, uning asosiy mezoni sifatida ishlab chiqarish jarayonida eskirish darajasining tezligi, deb hisoblagan. Tez eskiradigan barcha narsalar, masalan, ichki kiyim, oziq-ovqat va boshqalarni iqtisodchi aylanma mablag'lar, uzoq muddatli foydalanish obyektlari, masalan, bino va inshootlar, mashinalar va kemalarni asosiy kapital sifatida qaragan"¹⁷.

Shu bilan birga, yana bir klassik iqtisodchi olim Dj.M.Keyns iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish g'oyasi va usullarini taklif qilgan. U quyidagi xulosalarni keltirib o'tgan:

¹⁶ B.S.Mamatov, D.Yu.Xo'jamqulov, O.Sh.Nurbekov. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. Darslik. – T.: Iqtisod-moliya, 2014. - S.52

¹⁷ Шпинев Ю. С. Давид Рикардо об инвестициях // Проблемы экономики и юридической практики. 2021.

Т. 17. № 1. С. 146-151.

MUNDARIJA

KIRISH..... 3

MILLIY IQTISODIYOTIMIZDA INVESTITSIYA

I FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHDA BOZOR BOB MEXANIZMLARINING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI

Investitsiya faoliyatini moliyalashtirishda bozor	
1.1. mexanizmlarining zarurligi va funksional elementlarining nazariy asoslari	7
1.2. Investitsiyalarni moliyalashtirishning manbalari va usullarini shakllantirish asoslari.....	25
1.3. Investitsiya faoliyatini moliyalashtirishda bozor mexanizmlarining huquqiy asoslari.....	37

MAMLAKATIMIZDA INVESTITSIYA

II FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHNI BOZOR BOB MEXANIZMLARINING AMALDAGI HOLATI TAHLILI

Respublikamizda investitsiya faoliyatini moliyalash-	
2.1. tirishda bozor mexanizmlarining hozirgi kundagi holati tahlili.....	57
Investitsiya faoliyatini bozor mexanizmlari orqali	
2.2. moliyalashtirishning ilg'or xorij tajribalari va ularni O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari.....	84
2.3. Investitsiyalarni bozor mexanizmlari orqali moliyalash-	
tirishning iqtisodiyot rivojiga ta'sirining ekonometrik tahlili.....	101

**INVESTITSIYA FAOLIYATINI
MOLIYALASHTIRISHNING BOZOR
BOB MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH
YO'LLARI**

Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya faoliyatini moliya-	
3.1. Iashtirishning bozor mexanizmlarini joriy etishdagi	
muammolar.....	122
3.2. Mamlakatimizda investitsiya faoliyatini moliyalashti-	
rishning bozor mexanizmlarini takomillashtirish yo'llari.	130
XULOSA VA TAKLIFLAR.....	139
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	144